

O'ZBEKISTON EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Toshpo'latova Mohichehra Yulduz qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti Iqtisodiyot mutaxassisligi 1-kurs magistr

Ilmiy rahbar: Tuyg'unoy Mamadjanova

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri, eksport salohiyatini rivojlantirish va samaradorligini oshirishdan iborat. Mamlakatning geografik joylashuvi, tabiiy resurslarga boyligi va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlari eksportni rag'batlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, xomashyo eksportiga qaramlik, ishlab chiqarishning past diversifikatsiyasi va xalqaro bozorlarga chiqishda infratuzilma cheklovleri eksport samaradorligini cheklab kelmoqda.

A.Ilyasov o'zining "Raqamli iqtisodiyotda sanoat mahsulotlarini eksport qilishdagi ayrim muammolar" nomli maqolasida ""UzAuto Motors" kompaniyasi General Motors bilan hamkorlik qilib, yillar davomida avtomobillar ishlab chiqarib kelmoqda. So'nggi yillarda Xitoyning MG (Morris Garages) va Volkswagen kabi brendlari bilan hamkorlik o'rnatildi. 2023-yilda elektromobillarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bu esa o'z navbatida avtomobil sanoati uchun ehtiyyot qismlar ishlab chiqarish mahalliylashtirilib, qo'shilgan qiymat ulushi oshirildi"¹- deya fikr bildiradi.

Eksportni rag'batlantirish agentligi huzurida Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etilmoqda, uning hisobidan tijorat banklariga eksport bilan bog'liq savdo operatsiyalarini moliyalashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish maqsadida moliyaviy resurslarni ajratish mexanizmi joriy etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-iyundagi "Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo

¹ Ilyosov, A. (2020). Some problems in digital production and export of industrial products in the digital economy// Economics and finance. 2020. №3. 175-182 p. ISSN 2010-9997

tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-85-son Farmoni² hamda 2024-yil 15-maydagi "Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi va Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi yig'ilishi doirasida erishilgan kelishuvlarning ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-179-son qarori³ ijrosini ta'minlash, shuningdek, eksportni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini Jahan savdo tashkilotining bitimlariga muvofiqlashtirish maqsadida, eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasining resurs bazasini shakllantirish va faoliyatini boshlash uchun O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan 100 mln AQSh dollari miqdorida mablag' ajratildi.⁴

Masalan, ko'proq mahsulotni dunyo bozorlariga eksport qilishda transport xarajatlari mahsulot qiymatining katta hajmini tashkil etishi mumkin, bu esa O'zbekiston mahsulotlarini xorijiy bozorlarga chiqishida qiyinchilik tug'diradi.

Aytib o'tishimiz kerakki, davlat tomonidan ssudalar berish va biznes rejalarini amalga oshirish eksportchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi shu bilan birgalikda dunyo bozorlariga chiqishga o'z hissasini qo'shadi.

1-jadval. O'zbekiston Respublikasining 2022-2024-yillardagi yirik hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi⁵

<i>T\rl</i>	<i>Davlatlar</i>	<i>2022-y</i>	<i>2023-y</i>	<i>2024-y</i>
1.	XXR	8333,5	12231,4	11255,0
	<i>eksport</i>	2514,6	2274,3	1913,0
	<i>import</i>	5818,9	9957,0	9342,0
2.	Rossiya	8424,0	8867,0	10681
	<i>eksport</i>	2865,9	3006,5	3410,5
	<i>import</i>	5558,1	5860,5	7271,0
3.	Qozog'iston	4202,5	4005,4	3854,7

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-iyundagi PF-85-son farmoni

³ 2024-yil 15-maydagi PQ-179-sonli qarori

⁴ Statistika agentligi ma'lumotlari

⁵ Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

	<i>eksport</i>	1281,8	1286,6	1308,9
	<i>import</i>	2920,8	2718,8	2545,7
4.	Turkiya	3065,5	2839,1	2635,2
	<i>eksport</i>	1516,0	1175,6	1023,4
	<i>import</i>	1549,5	1663,6	1611,8

1-jadvaldan ko'rinish turibdiki, O'zbekiston eksportining samaradorligini oshirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Mamlakatning iqtisodiy o'sishini ta'minlash, yangi ish o'rnlari yaratish, valyuta tushumlarini oshirish va tashqi savdoni rivojlantirishda eksportning rolini oshirish zarur. Shu bilan birga, keyingi tadqiqotlar ushbu strategiyalarni amalga oshirishning amaliy samarasini baholash, iqtisodiy ta'sirini o'rganish va kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yangi muammolarni hal etish uchun yangi yechimlar ishlab chiqishni taqozo etadi.

**2-jadval. 2026-2030-yillarda Surxondaryo viloyati eksport hajmi bo'yicha
prognoz va ishonch intervallari⁶**

Yillar	Ko'rsatgi ch haqiqiy qiymatlar i	Ko'rsatgi ch nazariy qiymatlar i	Standart xato	95% ishonch intervali quyi chegarasi	95% ishonch intervali yuqori chegarasi
2026	-	27131.1	931.872	25304.6	28957.5
2027	-	29261.3	999.610	27302.1	31220.5
2028	-	31424.1	1002.21	29459.8	33388.4
2029	-	34808.6	1082.60	32686.8	36930.5

⁶ Arima modeli ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2030	-	39524.1	1215.76	37141.2	41906.9
------	---	---------	---------	---------	---------

O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirish, uning iqtisodiyotini yanada mustahkamlash va jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish uchun zaruriy strategik chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak. Eksportning samaradorligini oshirish uchun mamlakatning eksport tarkibini diversifikatsiya qilish, yangi bozorlarni izlash, modernizatsiya va innovatsiyalarni joriy etish, shuningdek, xalqaro talablar va standartlarga moslashish muhim ahamiyat kasb etadi. K.Kurpayanidi o'zining “O'zbekistonda raqobatbardosh milliy innovatsion tizimni shakllantirish masalalari”⁷ nomli maqolasida O'zbekistonning eksportini rivojlantirish va uning global bozorlaridagi o'rnini mustahkamlash uchun quyidagi qo'shimcha tavsiyalarni berib o'tadi:

- Yangi sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalg qilish;
- Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash
- Raqamli platformalarni rivojlantirish
- Innovatsion texnologiyalarni joriy etish,
- Yangi bozorlarni izlash va diplomatik tashabbuslarni kuchaytirish.

Eksportni qo'llab-quvvatlash uchun davlat dasturlarini ishlab chiqish, mamlakatning eksport strategiyasiga asoslanib, ilg'or tajribalardan foydalanish va davlat tomonidan eksportchilarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish lozim.

Xulosa

O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirish uchun integratsiyalashgan yondashuvni amalga oshirish zarur. K.Kurpayanidining yuqoridagi tavsiyalarini hayotga tatbiq etish orqali O'zbekiston o'z iqtisodiy salohiyatini yanada kuchaytirishi, xalqaro bozorlarida o'z o'rnini mustahkamlashi va global savdoda o'z

⁷ Kurpayanidi, K. et al. (2020). The issue of a competitive national innovative system formation in Uzbekistan. E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2020. – T. 159. – C. 04024. DOI: <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202015904024>

o'rnini kengaytirishi mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Ilyosov, A. (2020). Some problems in digital production and export of industrial products in the digital economy// Economics and finance. 2020. №3. 175-182 p. ISSN 2010-9997
2. Kurpayanidi, K. I., & Ilyosov, A. A. (2020). Problems of the use of digital technologies in industry in the context of increasing the export potential of the country. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (90), 113-117. Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS>
3. Kurpayanidi, K. et al. (2020). The issue of a competitive national innovative system formation in Uzbekistan. E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2020. – T. 159. – C. 04024. DOI: <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202015904024>
4. Kurpayanidi, K., Ilyosov, A. (2020) Problems of the use of digital technologies in industry in the context of increasing the export potential of the country// International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. p. 113-117.